

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agroteknologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВНА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВНА

Оптимал суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 дона чигит вазни белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibrid modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





UO'T: 634.12.633.

SURXONDARYO VILOYATIDA ANOR YETISHTIRISHNING AGROTEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Akademik Maxmud Mirzayev nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik
ilmiy-tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi Bog'dorchilik,
uzumchilik agrotexnikasi bo'limi boshlig'i

E-mail: ochildiyevoktam7@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-0823-1792>

Annotatsiya. Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubida joylashgan. U Surxon-Sherobod vohasini va uning atrofini o'rab turgan tog'larni o'z ichiga oladi. Surxondaryo vohasi shimoliy hududining iqlimi quruq subtropik iqlimdir. Lekin, atrofdagi tog'larga ko'tarilgan sari iqlim o'zgaradi. Surxondaryo viloyatining iqlimi mavsumiy bo'lib, mavsumga qarab o'zgarib turadi. Viloyatning iqlimi quruq keskin kontinental, tez o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, subtropik ekinlar, shu jumladan anor yetishtirish uchun qulaydi.

Kalit so'zlar: anor, nav, tur, tup, meva, hosildorlik, yetishtirish, gul, barg, po'stloq.

Аннотация. Сурхандарьянская область расположена в самой южной части Узбекистана. Она включает в себя оазис Сурхан-Шерабад и окружающие его горы. Климат северной части оазиса Сурхандарья – сухой субтропический. Однако по мере подъема в окружающие горы климат меняется. Климат Сурхандарьянской области сезонный и меняется в зависимости от времени года. Климат региона – сухой, резко континентальный, с быстрыми изменениями, что благоприятствует выращиванию субтропических культур, в том числе граната.

Ключевые слова: гранат, сорт, тип, клубень, плод, урожайность, выращивание, цветок, лист, кора.

Abstract. Surkhandarya region is located in the southernmost part of Uzbekistan. It includes the Surkhan-Sherabad oasis and the surrounding mountains. The climate of the northern part of the Surkhandarya oasis is a dry subtropical climate. However, the higher you go into the surrounding mountains, the climate changes. The climate of Surkhandarya region is seasonal and varies depending on the season. The climate of the region is dry sharply continental, with rapid changes, which is favorable for the cultivation of subtropical crops, including pomegranate.

Keywords: pomegranate, variety, type, tuber, fruit, yield, cultivation, flower, leaf, bark.

KIRISH

Anor (*Punica granatum* L.) anordoshlar (anorgullilar) oilasiga mansub subtropik meva o'simligi bo'lib, bo'yi 2–10 metrli daraxt yoki butadir. Vatani – O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Afg'oniston hisoblanadi. Yovvoyi turlari O'rta dengiz atrofida, O'rta Osiyoning janubida, Qrim, Kavkaz, Eron, Afg'oniston, Old Osiyo va Dog'istonda uchraydi. O'zbekistonda Quva, Namangan, Denov, Sariosiyo (Dashnobod), Sherobod va Kitob (Varganza) tumanlari o'zining a'lo sifatli anorlari bilan mashhurdir (6,8).

Ushbu subtropik o'simlikning eramizdan 2–3 ming yil avval Eron va Armanistonda xonakilashtirilgan hamda Afg'oniston orqali vohamiz hududiga kirib kelgan. Anorning yuqori mahsulot berish davri 60 yilni tashkil etadi, u 300 yilgacha yashashi mumkin (yoshi o'tgan sari hosil berishi kamayib boradi). Har





bir tupidan naviga qarab 5 kg dan 70 kg gacha hosil olish mumkin. Subtropik mevalilar orasida anor O'zbekistonda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Katta va sersuv mevalari o'zining yuqori ta'mi, shifobaxshligi, sifati, shuningdek, yaxshi tashiluvchanligi (transportabelligi) va uzoq saqlanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi (7).

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda anor madaniyati va mahalliy navlarning (jumladan, Qozoqi anor, Qizil anor) xo'jalik-biologik xususiyatlari akademik M. Mirzayev va uning shogirdlari tomonidan keng o'rganilgan. Tadqiqotchilar Surxondaryoning iqlim sharoiti subtropik ekinlar, ayniqsa, shirin va shifobaxsh anor navlarini yetishtirish uchun eng maqbul hudud ekanligini asoslab berganlar. Mahalliy olimlardan R.M. Abdullaev va boshqalar o'z ilmiy ishlarida anor navlarining sharbat chiqishi, qand miqdori va mahsulotning saqlanuvchanlik ko'rsatkichlarini atroflicha tahlil qilganlar (1).

Agrotexnika va meva yorilishi muammosi: Anorzorlarni sug'orish tartibi, o'g'itlash me'yorlari va shakl berish usullari bo'yicha X.Ch. Bo'riev va F.A. Yakubovlarning ilmiy tavsiyalari muhim ahamiyatga ega. Meva pishish davrida namlikning keskin tebranishi va havo haroratining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan meva yorilishi muammosi uzoq yillardan buyon dolzarb bo'lib kelmoqda. Bu borada zamonaviy fiziologik tadqiqotlarda fitogormonlar, xususan, o'sishni sozlovchi gibberellin (GA3) eritmalaridan foydalanish orqali po'stloq elastikligini oshirish va meva yorilishini kamaytirish imkoniyatlari isbotlangan(2).

Zararkunanda va kasalliklarga qarshi himoya: Anor agrotsenozida uchraydigan asosiy zararkunandalar — anor biti, o'rgimchak kana, anor mevaxo'ri va Komstok qurtiga qarshi kurash choralari Sh.T. Xo'jaev kabi yetakchi entomolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular erta bahorda mineral-moyli emulsiyalar (S-№30) va vegetatsiya davrida tizimli fosfororganik birikmalarni (Bi-58, Fazalon va b.) qo'llashning yuqori samaradorligini ko'rsatib o'tganlar (3).

TADQIQOTNING USULLARI

Dala va laboratoriya tajribalari hamda ilmiy ishlanmalar natijalarini ishlab chiqarishda sinash va tatbiq etish bo'yicha tajribalarda umum qabul qilingan «Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi» (X. Ch. Buriev, N. Sh. Yenileev va b., 2014) bo'yicha olib borilgan.

Istiqbolli anor navlarining tavsifi.

Qozoqi anor (Ko'k anor). O'zbekiston Respublikasida to'liq rayonlashtirilgan. Tuplari katta, o'rtacha shoxlangan bo'lib, shoxlari har tomonga tarqalgan. Mevalari yassi aylanasiimon, ayrim bo'laklari quyosh nurida kuyadi. Mevasining o'rtacha vazni 230–250 g, ayrimlari 700–800 g, hatto 1 kg gacha yetadi. Po'sti qattiq, pishgan mevasining rangi ko'kish-sariq bo'lib, to'q qizil tus bilan qoplangan, ayrim qismlarida nuqta yoki mayda chiziqlari bor. Donalari katta va





o'rtacha. Sharbati jigarrang, ta'mi sho'r-chuchuk (nordon-shirin), tarkibida 15–17% gacha qand va 1,4% gacha kislota mavjud. Sharbat chiqishi – 55%. Mevalarni uzoq masofalarga jo'natish va 8 oygacha saqlash mumkin (1-jadval).

Qizil anor. Tupi o'rtacha kattalikda bo'lib, keng tarqalgan mahalliy nav hisoblanadi. Mevasi sharsimon, qizil yoki to'q qizil rangda. Har birining og'irligi o'rtacha 200–270 g, yiriklari 600–800 g keladi. Doni katta va kichik, sharbati to'q qizil, ta'mi sho'r-chuchuk. Tarkibida 15–16% qand moddasi bor, sharbat chiqish miqdori 45% ni tashkil etadi. Bu navni 1–2 oy davomida saqlash mumkin, uzoq masofalarga jo'natishga yaroqsiz. Bir tupidan o'rtacha 35 kg hosil olinadi. Sifatli mahsulot chiqishi 58%, yorilishi 31%, maydasi esa 11% ni tashkil etadi. Kuz oylarida kunduzi va kechasi havo harorati keskin tebranib, mayin shamol esib turgan joylarda bu navning yorilishi 60–70% gacha ko'payadi.

1-jadval

Anor navlarining kimyoviy tarkibi

T/r	Nav nomi	Meva vazni, (g)	Sharbat chiqishi, (%)	Qand miqdori, (%)	Kislota, (%)	Saqlanishi va tashilishi
1.	Qozoqi anor	230–250	55	15–17	1,4	8 oygacha. Transportabelligi a'lo.
2.	Qizil anor	200–270	45	15–16	—	1–2 oy. Tez yoriluvchan, tashishga yaroqsiz.
3.	Gyulaysha roz.	200–260	53	15 gacha	2,0 gacha	2–3 oy. Po'sti yupqa, tashishga chidamsiz.

Gyulaysha rozovaya (Pushti Gyulaysha). Ozarbayjonda keng tarqalgan bo'lib, O'zbekistonda ham ekish tavsiya etilgan. O'rtacha tuplaydigan, mevasi yumaloq-uzunchoq shaklda, o'rtacha kattalikda (200–260 g), ayrim hollarda 600–700 g gacha yetadi. Po'chog'i yupqa bo'lib, meva umumiy og'irligining 25%ini tashkil etadi. Asosiy rangi sarg'ish-oq, to'q qizil rang bilan qoplangan. Donalari katta va o'rtacha. Nordon-shirin ta'mli bo'lib, tarkibida 15% gacha qand va 2% gacha kislota bo'ladi. Sharbat chiqishi meva og'irligiga nisbatan 53% ni tashkil qiladi. Uzoq joylarga jo'natib bo'lmaydi, 2–3 oy davomida saqlash mumkin (5).

Anorning xalq xo'jaligi va tabobatdagi ahamiyati.

Anor xalq tabobatida dorivor vosita sifatida keng qo'llaniladi. Mevasi tarkibida 8–21% shakar, 0,5–5% kislotalar va S vitamini mavjud. Pishgan meva sharbatida shifobaxsh temir va tanin moddalari bor. Anor po'stlog'i tarkibida 32% gacha oshlovchi moddalar mavjud. Tabiiy anor suvini sterilizatsiya qilish yo'li bilan "Granadin" ichimligi tayyorlanadi. "Granadin" issiqlikni tushiruvchi va chanqoqni bosuvchi vosita bo'lib, ovqat hazm qilishni tezlashtiradi, qon bosimi oshishi (gipertoniya) va bezgak (malyariya) kasalliklariga qarshi iste'mol qilish tavsiya etiladi. Qaynatilgan meva po'chog'i va ildizi tarkibida pelletverin va izopelleterin alkaloidlarini saqlagani bois oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi (4).

Anorni ko'paytirish va ekish texnologiyasi.

Anor asosan qalamchadan ko'paytiriladi. U unumdor qumoq va nami yetarli





tuproqlarda yaxshi o'sadi. Qurg'oqchilikka chidamli, lekin namsevar. Yerning unumdorligi va ishlov berish tizimiga qarab ko'chatlar 4×4 m, 5×4 m, ihotalangan tomorqalarda esa 3×3 m yoki 4×2 va 4×3 m sxemalarda ekiladi (gektariga 833–1250 tup). Vegetatsiya davri 180–215 kunni tashkil etadi. Yozdan kuzgacha gullaydi. Mevasi 120–160 kunda (sentyabrning ikkinchi yarmida) pishadi.

Anorzor barpo etish uchun sizoot suvlari 1.5–2 metr chuqurlikda joylashgan, sho'rlanmagan va botqoqlashmagan maydonlar tanlanadi. Yer tekislanib, gektariga 30–40 tonna chirigan mahalliy o'g'it (go'ng) solinib, 30–35 sm chuqurlikda haydaladi. Ko'chatlarni ekish shimoldan janubga qarab amalga oshiriladi. Ekish oldidan ildiz tizimining shikastlangan qismlari qirqib yangilanadi, kuchsiz novdalar olib tashlanib, 3–4 ta eng rivojlangan shox qoldiriladi va ularning 2/3 qismi qisqartiriladi. Ildizlar go'ngli-tuproqli suyuq atalaga botirib ekiladi va zudlik bilan sug'oriladi.

Anorzorlarni parvarishlash va shakl berish.

Anor ko'chati ekilgan birinchi yildan boshlab 30–40 sm balandlikda 4–5 ta asosiy shox qoldirilib, past bo'yli daraxt yoki 3–4 ta asosiy shoxli buta shaklida o'stiriladi. Ikkinchi yildan boshlab 40–60 sm balandlikda birinchi tartib shoxlari joylashtiriladi. Har yili qurigan, nimjon va chalkashib ketgan shoxlar kesib turiladi. Hosilning 70%i uchinchi va beshinchi tartibdagi shoxlarda shakllanadi. Ilmiy kuzatuvlar anorni 3 ta tana (stvol) qilib o'stirish agrotexnik tadbirlar va kimyoviy ishlov berish uchun eng qulay usul ekanligini ko'rsatdi (2-jadval).

2-jadval

Anor yetishtirishning asosiy agrotexnik ko'rsatkichlari

T/r	Agrotexnik ko'rsatkichlar va tadbirlar	Tavsiya etilgan me'yorlar
1.	Yer osti (sizoot) suvlari chuqurligi	1,5 – 2,0 m
2.	Ekish oldidan mahalliy o'g'it (go'ng) berish me'yori	30 – 40 t/ga
3.	Asosiy haydov chuqurligi	30 – 35 sm
4.	Ekish sxemalari (qator orasi × tup orasi)	4×4 m; 5×4 m; 4×3 m; 4×2 m
5.	Ko'chat ekish qalinligi (1 gektarga)	833 – 1250 tup
6.	Ekish chuqurligi va kengligi	50 × 50 sm
7.	Ko'chatlarni yumshatish (chopiq) chuqurligi	18 – 20 sm
8.	Mavsumiy sug'orishlar soni	6–10 dan 11–12 martagacha
9.	Sug'orish me'yori (mavsum boshida / yoz oylarida)	300–450 / 700 m ³ /ga
10.	Gibberellin (yorilishga qarshi) eritma konsentratsiyasi	0,1 %

Vegetatsiya davrida anorzorlar iqlim sharoitiga qarab 6–10 martadan 11–12 martagacha sug'oriladi. Sug'orish me'yori dastlab 300–450 m³/ga bo'lsa, yoz oylarida 700 m³/ga gacha oshiriladi. Aprel-may oylarida yog'ingarchilik ko'p bo'lsa, sug'orish kamaytiriladi, chunki ortiqcha namlik vegetativ o'sishni tezlashtirib, gullarning meva tugishini kamaytiradi. Biroq, havo harorati 25–28°C dan oshib ketganda namlik yetishmasa, gullar ommaviy to'kiladi. Meva pishish davridagi tartibsiz sug'orish mevaning to'kilishi va yorilishiga olib keladi.

Meva yorilishiga qarshi kurash va sovuqdan himoya qilish. Anor o'simligi -15, -17°C sovuqqa bardosh beradi, biroq harorat -20°C ga tushganda uning yer ustki qismi butunlay sovuq uradi. Kuz faslida o'simlik hali to'liq uyquga





ketmasdan haroratning to'satdan 0°C ga tushishi ham yosh novdalarni shikastlaydi. Shu sababli, Surxondaryo sharoitida har yili muntazam hosil olish uchun kuzda meva yig'ishtirilgach, anor shoxlari bir tomonga qiya qilib yotqiziladi va maxsus mashinalar yordamida tuproq bilan ko'milib, bahorda kurtaklar yozilgunga qadar ochiladi. Agar anorzorni sovuq ura, u ildiz bo'g'zidan qirqib tashlanib, to'g'ri agrotexnika qo'llansa, 3–4 yilda qayta tiklanib hosilga kiradi.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash choralari.

Anor biti (shirasi): Bahordan kuzgacha yosh novda va barglarning shirasini so'rib, o'sishni susaytiradi (3-jadval).

O'rgimchak kana: Barglarning ostki qismida yig'ilib (kattaligi 0,2–0,4 mm), yoz davomida 10–15 avlod beradi. Barglarni shikastlashi oqibatida meva pishmay qoladi. Tuproq yuzasida va po'stloq yoriqlarida qishlaydi.

Anor mevaxo'ri (qurti): Mavsumda 3–4 marta avlod beradi. Kapalaklari aprel oxiri – may boshida uchib, tuxumini meva kosachasiga qo'yadi.

Unsimon uzum qurti (Komstok qurti): Meva kosachasida oq xaltasimon to'dalar hosil qiladi va ajratgan shirin suyuqligida sariq chirish zamburug'i sporalari rivojlanib, mevani chiritadi.

3-jadval

Anor mevasining asosiy zararkunandalari

T/r	Zararli organizm	Zararlash xususiyati va qishlashi	Qo'llaniladigan preparatlar va muddati
1.	Anor biti	Sharbat so'radi. Novdada faol rivojlanadi.	Bi-58 yoki Fazalon (0,1–0,2%), iyun–iyul.
2.	O'rgimchak kana	Bargni teshadi. Po'stloq va tuproqda qishlaydi.	S-№30 neft moyi (35–40 kg/ga), erta bahorda; Omayt (0,1–0,2%) vegetatsiyada.
3.	Anor mevaxo'ri	Mevani ichidan yeydi. Shox kovagida qishlaydi.	Fazalon yoki Bi-58 (0,1–0,2%), kapalak uchish davrida. Shoxlar kuzda yoqiladi.
4.	Komstok qurti	Mevani chiritadi. Ildiz bo'g'zida qishlaydi.	Tizimli insektisidlar (iyun–iyul). Kuzda 30–35 sm haydov va yaxob suvi.
5.	Rak va chirish	Yara va chirish hosil qiladi. Shoxda saqlanadi.	Temir kuporosi (6%) yoki Bordo suyuqligi (5%) kuzda va erta bahorda.

Kurash choralari: Kech kuzda qator oralari 30–35 sm chuqurlikda haydaladi va yaxob suvi beriladi. Erta bahorda, uyg'onish davrigacha, qishlovchi zararkunandalarga qarshi S-№30 neft moyli preparati (35–40 kg/ga) purkaladi. Vegetatsiya davrida zararlantirish darajasiga qarab Bi-58 yoki Fazalonning 0,1–0,2% li eritmasi (800–1200 l/ga) bilan gullashdan oldin va keyin (iyun oxiri – iyul boshida) ishlov beriladi. Shuningdek, Omayt (0,1–0,2%), Sumi-alfa (0,05–0,1%), Karate yoki Nurell-D preparatlarini qo'llash mumkin. Rak (fomopsis) va sariq chirish kasalliklariga qarshi kuzda 6% li temir kuporosi yoki 5% li Bordo suyuqligi, bahorda esa gullashdan oldin va keyin yana 5% li Bordo suyuqligi purkaladi (3).





Hosilni yig'ib olish va standartlash. Anor mevasi oktyabr oyida, yomg'irlar va sovuqlar boshlanmasdan oldin bog' qaychilari yordamida avaylab terib olinadi. Terim kechiktirilsa, mevaning yorilishi keskin ortib ketadi. Saralangan mevalar davlat standarti bo'yicha quyidagi navlarga ajratiladi:

Birinchi nav: Meva diametri 6–3 sm dan kam bo'lmagan, vazni 170 g dan 700–800 g gacha bo'lgan, sog'lom va shikastsiz mevalar (2).

Ikkinchi nav: Quyoshda 1/8 qismi kuygan, po'stida bilinar-bilinmas yoriqlari bo'lgan, lekin donalari qurimagan, diametri 5 sm dan kam bo'lmagan mevalar.

Yaroqsiz va nostandart: Meva po'stining ko'p qismi quyoshdan kuygan, qoraygan va chuqur yorilib, donalari to'kilgan mevalar bo'lib, ular terilgan zahoti sharbat va ichimliklar tayyorlash korxonalariga qayta ishlash uchun jo'natiladi(1).

XULOSA

Surxondaryo viloyatining quruq subtropik va keskin kontinental iqlimi yuqori sifatli, qand miqdori baland anor mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradi. Mahalliy iqlim sharoitida "Qozoqi anor", "Guloysha rozovaya", "Qizil anor" navlaridan yuqori hosil olish uchun kuzgi ko'mish-ochish ishlarini tizimli bajarish, sug'orish rejimiga qat'iy amal qilish hamda gibberellin fitogormonidan foydalangan holda meva yorilishining oldini olish va zararkunandalarga qarshi o'z vaqtida kimyoviy himoya choralari qo'llash talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev R.M., Yakubov F.A. Anor yetishtirish agrotekhnologiyasi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 18-20.
2. Bo'riev X.Ch., Boymatov K., Jo'raev R. Subtropik mevalar va rezavorlar yetishtirish texnologiyasi. – Toshkent: «Mehnat», 2002. – 145 b.
3. Xo'jaev Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, tok, subtropik ekinlar va rezavor mevalar zararkunandalari. – Toshkent: «Navro'z», 2014. – 212 b.
4. Ochildiev O'.O. Surxondaryo viloyati sharoitida istiqbolli anor navlarining agrotekhnologik xususiyatlari va meva sifati tahlili. // Akademik M. Mirzaev nomidagi BUVITI ilmiy asarlar to'plami. – Toshkent, 2025. – Tom 34. – B. 88-94.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti. Yangi uzilgan anor mevalari. Texnikaviy shartlar (O'z DSt 3125:2018). – Toshkent: „O'zstandart“ agentligi, 2018. – 12 b..
6. Мирзаев М. М., Жавакянц Ю. М. Культура граната в Узбекистане. — Ташкент: Фан, 1984. — С. 12-25.
7. Флора Узбекистана. В 6-ти томах. / Гл. ред. академик К. З. Закиров. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1950-1962.
8. Исломов Р. Я. Субтропик мева ўсимликлари (ўқув қўлланма). — Тошкент, 2011.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**